

**OILAVIY MUNOSABATLARNI MUSTAHKAMLASHDA INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA
"SHUKRONALIK" KONSEPTINING LINGVO-MADANIY VA SEMANTIK AHAMIYATI***Sh. Rahimova*¹*Annotatsiya:*

Bu maqola ingliz va o'zbek tillarida oilaviy munosabatlarni mustahkamlashda shukronalik konseptining lingvo-madaniy va semantik xususiyatlari haqida bayon qilingan. Ikki tilda shukronalikni qo'llanilishi doirasi haqida aytilgan.

Kalit so'zlar: "shukronalik", qanoat, minnatdorchilik, munosabat, lingvo-madaniyat, semantik.

doi: <https://doi.org/10.2024/pkd5rh44>

Olimlar oldiga hozirgi zamon tilshunosligini har tomonlama yuksaltirish masalasi asosiy vazifa qilib qo'yilar ekan, tilshunoslikni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omillarni atroflicha tadqiq qilish, ularning bu borada qanday o'rin tutishini chuqur anglab olish taqozo etiladi. Zero, xalq hayotining asosi hisoblangan tilshunoslikni mustahkamlash va rivojlantirish respublikamizda davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalardir.

Tilshunoslik shunday qimmatbaho mezonki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida o'z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg'usi bilan birgalikda tarixan shakllangan. Til insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o'giti bilan birga singadi.

Ingliz tilida shukronalik bildirishning yo'llarini batafsil ko'rib chiqishdan oldin, shukronalik tushunchasining mohiyatini ochib berish kerak. "Rahmat" so'zi "yaxshilik va qanoat qilish", ya'ni ezgulik qilish ma'nosini bildiradi. Bu atama boshqalarning mehribonligiga, inson qalbida paydo bo'ladigan mos keladigan tuyg'ularga javoban shukronalik hissini anglatadi. Ko'pincha, yaxshi ish qilsak, biz bu evaziga biror narsa olishni kutamiz. Qolaversa, oddiygina minnatdorchilik so'zini ham eshitmasak, biz xafa bo'lamiz.

Keling, izohli lug'atda shukronalik tushunchasining ta'rifini ko'rib chiqaylik: shukronalik tuyg'usi, kimgadir yaxshilik, xizmat yoki xayriya uchun to'lash istagini anglatadi. Ingliz tilida ham, o'zbek tilida ham turli harakatlar va xizmatlar, maqto'vlar, ko'rsatilgan yordamlar, biror narsani qarzga olish, taklif, sovg'a, tilak, muomala, yoqimli voqea uchun minnatdorchilik bildiriladi. Bundan tashqari, shukronalik kengaytirilgan salom sifatida xizmat qilishi mumkin.

Shukronalik nutqi janrlari odob janrlarining bir turini ifodalaydi. Bu guruh uzr, tabriklar va hamdardliklarni o'z ichiga oladi. Shukronalik janrining asosiy xususiyatlari shundan iboratki, ijtimoiy olamdagi voqealarga og'zaki munosabat odob-axloq qoidalari bilan belgilanadi va turli ifoda vositalaridan foydalanadi. Shukronalik kategoriyasini bildirishda turli leksik-semantik va grammatik ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Shukronalik, birinchi navbatda, og'zaki va og'zaki bo'lmagan bo'lishi mumkin bo'lgan odob-axloq qoidalarining bir shakli bo'lgan shukronalik nutqi janri orqali ifodalanadi. Shukronalikni bildirishning kommunikativ maqsadi suhbatdosh tomonidan ko'rsatilgan yordam yoki xizmat uchun ma'ruzachining minnatdorchiligini va shukronaligini ko'rsatishdir. Shu bilan birga, shukronalik muallifning hissiy holatining ifodasi bo'lib xizmat qiladi va qabul qiluvchining his-tuyg'ulariga ta'sir qilish vositasidir. Minnatdorchilik bildirish orqali

¹ Rahimova Shahnoza Jo'raqulovna, Termiz Davlat Pedagogika Instituti, Amaliy ingliz tili kafedrasida o'qituvchisi

ma'ruzachi nafaqat yordamni tan oladi, balki qabul qiluvchiga ijobiy munosabat bildiradi. Har bir konsept o'z leksik-semantik va lingvokulturologik ahamiyatga ega bo'lib shukronalik ham xalqimiz orasida keng qo'llanilib madaniy-ma'rifiy mustahkamlangan korinishiga ega.

Jamiyatimizda sodir bo'layotgan har qanday o'zgarish muammo va rivojlanishni olib chiqish barcha sohalarini qamrab olmoqda. Oilalarni mustahkamlash ular o'rtasidagi ahillik, jipslikni mustahkamlashda ham so'zlarning ahamiyati va o'zni beqiyosdir. Shukronalik konseptining semantic xususiyatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak uning ahamiyati insonlar o'rtasidagi so'zlashuvda juda muhimdir. Xalqimiz orasida yillar davomida qanoat, shukronalik, minnatdorchilik va raxmat kabi so'zlar qo'llanilib ular orasida mehr muhabbatni yaqinlikni ko'paytirib oilalar mustahkamligini ko'rsatib bergan. Hozirgi kunga kelib oilalardagi kelishmovchiliklar dunyo xalqlari orasida ajrashish oilalarni buzulib ketishiga ular orasidagi suhbatlarning ijobiy so'zlar bilan sug'orilib boyitilmayotgani, yuzma-yuz suhbatlarning kamaygani sabab bo'lmoqda. Agar biz ijobiy va insonlar orasidagi ahillikni mustahkamlovchi tilshunoslikni yanada boyitib beruvchi konseptlarni tahlil qilib semantic va lingvo-kulturologik tahlil qilib borsak nafaqat jamiyat rivojiga balkim ikki tildagi konseptlarning asosiy semantic va lingvokulturologik xususiyatlarini ham o'rganib chiqqan bo'lamiz.²

Lingvokulturologiyada kontsepsiya - bu etnik guruh yoki jamiyatning jamoaviy lingvistik mentalitetida mustahkamlangan madaniyat elementlari haqidagi ma'lumotlar. Lingvomadaniy tushunchani moddiylashtirish va obyektivlashtirishning eng muhim vositasi tildir.

“Lingvokulturologiya o'z predmeti sifatida xalq madaniyatining, asosan, ma'naviy-ma'rifiy, uning tili va nutqida aks ettirilgan va mustahkamlangan ko'rinishlarini o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot birligi lingvomadaniy tushuncha bo'lib, u o'zining eng umumiy ko'rinishida madaniyat va tilga "cho'milgan" ob'ektning muhim belgilari to'plami tushunchasiga tushadi.

Lingvokulturologiya umumiy madaniy sohalarini o'z ichiga olgan holda til va madaniyatni bog'likligini o'rganuvchi tilshunoslikning bir bo'limi hisoblanadi.

Ma'lumki, madaniy nutqda uning tarkibida ishtirok etadigan, muayyan darajada nutqiy faoliyatda faol qo'llaniladigan ko'plab tushunchalari borki, ular og'zaki va yozma nutqda mavjudligi bilan ajralib turadi. Shunday konseptual asosga ega bo'lgan tushunchalardan biri “shukronalik” konseptidir.” shukronalik” konsepti nutq jarayonida so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi munosabatni belgilaygan muhim omillarda namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, bu paremiologik birliklar nutqimizning bezagi vazifasini bajaradi. Ma'lumki, “shaxs nutqi hosil qilishda faqat uning mavzusi bilan qiziqib qolmasdan, nutq jarayonida o'z his-tuyg'ularini ham bildiradi. Nutq jarayonidagi his-tuyg'ulari va ichki kechinmasi shaxsning xususiy munosabati sifatida shakllanadi... xususiy emotsional munosabat, albatta, matn muallifining ruhiy holatidan kelib chiqadi va bevosita matn mazmunidan anglashilib turadi”. “Shukronalik” konsepti o'zaro muloqotga kirishgan ikki va undan ortiq ishtirokchilar o'rtasida bir-biriga bo'lgan munosabatida asosiy o'rin egallovchi ichki tuyg'ulardan biridir. “Shukronalik” konseptidan nutq jarayonida foydalanishning quyidagicha ifodaliligi namoyon bo'lishini va oila va jamiyat rivojiga mustahkamligini oshirishda o'rnini ko'rib chiqadigan bo'lsak quyidagi semantic va lingvo-kulturologik :

- insonlar o'rtasida ishonch tuyg'usini shakllantiradi;
- shukur qilish qanoat qilishni oshiradi
- qanoat tuyg'usini kuchaytirib atrofidagi barcha insonlarni narsalarni borligiga shukur qiladi
- bu tuyg'uni og'zaki nuqtda chin dildan aytish orqali farzand va ota ona o'rtasidagi mehr-muhabbat ortadi
- turmushdagi bor narsaga qanoat qilib uni ko'payishiga sabab bo'ladi

- mehnatsevarlikning ijobiy ko'rsatkichini oshiradi;
- o'zaro kommunikativ aloqani mustahkamlaydi;
- insofli, adolatli bo'lishga, kuchli ilm egallashga chaqiradi;
- mustaqil fikrlash jarayoni kengaytiradi;
- nutqning madaniyligini ta'minlovchi kommunikativ sifatlarda yetakchi mavzuni belgilaydi.

“Shukronalik” konsepti o'ziga xos koloritlarini o'rganish orqali uning mazmunida lisoniy birlikda namoyon bo'ladigan ifodali munosabat zahirida ezgulik, sadoqat, to'g'rilik va oliyjanoblik yotadi.

Albatta, qaysi tilda bo'lmasin oilaviy munosabatlarda minnatdorchilikni rivojlantirish uchun, avvalo, minnatdorchilik nimani anglatishini tushunish kerak. Minnatdorchilik shunchaki "rahmat" aytishdan ko'proq narsadir. Bu biz boshqalardan ko'rgan foyda va mehr-oqibat uchun chuqur minnatdorchilikdir. Bu nafaqat ijobiy harakatlar yoki sovg'alarni tan olishni, balki undan keyingi hissiy va xatti-harakatlarni ham o'z ichiga oladi.

Minnatdorchilik insoniy tuyg'ularning eng sog'lomidir. Sizda bor narsa uchun qanchalik ko'p minnatdorchilik bildirsangiz, minnatdorchilik bildirish ehtimoli shunchalik ko'p bo'ladi.

Uzbek tilida bo'lgani kabi ingliz tilida ham shukronalikni bildiruvchi ko'plab so'zlar bor, biz ularni kunlik va doimiy ishlatilini yuriladigan turlarga bo'lib o'rganishimiz mumkin. Ular thank you, welcome, appreciation, gratefulness bolishi mumkin. Oila dinamikasini shakllantirishda minnatdorchilikning ahamiyatini e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bu qadrlash va ijobiylik muhitini yaratadi, oilada daxldorlik va birlik hissin rivojlantiradi.³

Ko'pgina tajribalar shuni ko'rsatmoqdagi uzbek tili va ingliz tilida so'zlashuvchilar shukronalik minnatdorchilik so'zlarini hozirda oldingidan ko'ra kam ishlatilini so'zning qiymatiga ham ta'sir qilib oila munisabatlarida va suhbatlarda kam qo'llanilyapti.

Demak, shuni aytishimiz mumkinki oila mustahkamligi, ota-ona va farzand o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni rivojlantirishda “shukronalik” konsepti o'rnini qanchalik muhim ekanligini o'rganib uni insonlar o'rtasida chuqur tadqiqotlar va izlanishlar bilan o'ganib tadbiq etish ishimizning asosiy maqsadi ekanligini anglagan xolda davom ettirish, uning asosiy ma'no mazmunini o'rganish, “shukronalik” konseptini yoshlar ongiga singdirish asosiy vzaifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Каримов И.А. *Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура*. (Нутқлар, мақолалар суҳбатлар). Т: Ўзбекистон, 1993, 78-б.

[2]. Hakimov M. *O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: filol. fan. dok. diss.* Toshkent. 2001.

[3]. Alexander V. Smirnov, Alyona G. Obolenskaya, Ravil A. Valiev “The semantic structure of gratitude” 2015 148 b